



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

8(16)  
2024



|   |                                                                                                                                                                                     |     |
|---|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 6 | Makulov Shuxrat Xolmatjonovich. Bo'lajak pedagoglarning metodik malakalarini rivojlantirishning interfaol ta'lim texnologiyalari.....                                               | 128 |
|   | Kamolova Azimaxon Odiljon qizi. Kasbiy kasalliklarni oldini olishda va oliy ta'lim muassasasi talabalarining salomatlik madaniyatini shakllantirish.....                            | 132 |
|   | Rasulova Maftuna Nasimboy qizi. Ish joyida malaka oshirish metodik tizimini takomillashtirishda zamonaviy usul va strategiyalarning ahamiyati .....                                 | 136 |
|   | Kalandarov Shamsiddin Sitmamatovich. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.....                                                    | 140 |
|   | Saloyeva Gulbahor Xayrullayevna. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlarni tashkil qilish texnologiyasi.....                                                  | 143 |
|   | Ozodova Madina Hamza qizi. O'quvchilarda kreativlikni shakllantirishning mazmun-mohiyati.....                                                                                       | 147 |
|   | Qulmamatov Romazon Juma o'g'li. Raqamli texnologiyalar (autocad dasturi) dan foydalanib bo'lajak muhandislarni muhandislik grafikasini o'qitish metodikasini takomillashtirish..... | 151 |

## **PSIXOLOGIYA ..... 158**

|  |                                                                                                                         |     |
|--|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|  | Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna. Kichik guruhlardagi nizoli vaziyatlarni boshqarishning pedagogik jihatlari..... | 158 |
|  | Lutfiya Yusufvna Kalkonova. Observations on the formation of mnemonic goals in preschool children.....                  | 162 |
|  | Suvonova Sevara Asliddin qizi. Yoshlarda tolerantlik xususiyatlarni shakllantirishning etnopedagogik jihatlari .....    | 165 |

**Orziyev Mahmud Zayniyevich**  
Buxoro davlat universiteti  
arxeologiya va Buxoro tarixi  
kafedrasi dotsenti, tarix fanlari  
falsafa doktori (PhD)

**Islomova Sarvinoz Jasur qizi**  
Buxoro davlat universiteti  
tarix ta'lim yo'nalishi  
II bosqich talabasi

**MO'G'ULLAR HUKUMRONLIGI SO'NGGIDA AYRIM TURK-MO'G'UL  
QABILALARINING MOVAROUNNAHRDA O'RNASHISHI XUSUSIDA**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada, Movarounnahr mo'g'ullar tomonidan istilo qilingandan so'ng, Chig'atoy ulusi tarkibiga kirishi va Chig'atoyxon xizmatiga berilgan turk-mo'g'ul qabilalarning kelib o'rnashishi, shuningdek, mo'g'ullar saltanatida toju-taxt uchun kurashlar boshlanishi natijasida XIII asrning o'rtalaridan boshlab ikkinchi to'lqin turk-mo'g'ul qabilalarining kirib kelish jarayonlari, Movarounnahrga kirib kelgan qabilalarning turli o'lkalarga joylashishi, Chig'atoy ulusida tutgan mavqei, urug'-qabilalarning o'troqlashuvi, Chig'atoy ulusida toju-taxt uchun kurashlar boshlangan davrda turk-mo'g'ul qabilalarining o'zaro kurashlarga tortilishi, Movarounnahrdagi joylashgan turk-mo'g'ul qabilalarining kuchlilari o'zlari yetakchilikni qo'lga olishga urinishlari va oxir-oqibat Chig'atoy ulusi parokandalikka uchrashi masalalari keltirilgan. Shuningdek, maqolada, Arlot, Sulduz, Dug'lot, Barlos, Jaloyir, Arg'un, Apardiy, Nayman, Xalaj, Chigil, Chag'roq, Buruldoy, Qavchin, Qoraunas (Nekudoriy)lar, Yasovur, Hazora, Darlikin kabi urug'-qabila va etnoslar, ko'rib chiqilayotgan tarixiy davrda ularning joylashuvi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda joylashgan hududlarning o'zgarib borishi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida ishtiroki tarixiy manba va adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida o'rganilgan. To'plangan materiallar qiyosiy tahlil qilinib, ilmiy xulosalarga kelingan. Maqolada keltirilgan fikr-mulohazalar Mo'g'ullar hukumronligining so'nggi davri, Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelish arafasidagi Movarounnahrning etnogenezi va etnik tarixi xususida tushuncha va tasavvurlarni boyitishga xizmat qiladi.*

***Tayan so'zlar:** Qabila, turk-mo'g'ul, hokimiyat, ulus, yetakchi, qurultoy, hudud, istilo, ko'chish, ko'chib o'tish, etnos, mustaqil hokimlik.*

**ПО ПОВОДУ РАССЕЛЕНИЯ НЕКОТОРЫХ ТЮРКО-МОНГОЛЬСКИХ  
ПЛЕМЕН В МОВАРУННАХРЕ В КОНЦЕ МОНГОЛЬСКОГО ВЛАДЫЧЕСТВА**

***Аннотация.** В данной статье после завоевания Мовароуннахра монголами он вошел в состав Чигатойского улуса и прихода тюрко-монгольских племен, отданных на службу Чигатойхану, а также монголов в результате борьбы за престол в королевстве, вторая волна тюрко-монгольских племен с середины 13 в. вступила в Моваруннахр. расселение племен, пришедших в разные страны, положение, которое они занимали в Чигатойском улусе, расселение родов и племен, вовлечение тюрко-монгольских племен во взаимную борьбу в период начала борьбы за корону в Чигатойском улусе, расположенном в Моваруннахр. Сильные тюрко-монгольские племена попытались взять на себя руководство, и в конце концов клан Чигатай пришел в упадок. представлены вопросы. Также в статье рассмотрены такие роды, как Арлот, Сулдуз, Дуглот, Барлос, Джалойир, Аргун, Апардий, Найман, Халадж, Чигиль, Чагроз, Бурулдой, Кавчин, Караунас (Некудори), Ясовур, Хазора, Дарликин -племена и этносы. , их расположение в рассматриваемый исторический период, изменения в ареалах, находящихся в политических, социально-*

- 8 экономических процессах, стране. участие в социально-экономической и политической жизни изучалось на основе сведений исторических источников и литературы. Собранные материалы были сравнительно проанализированы и сделаны научные выводы. Представленные в статье комментарии служат обогащению представлений и представлений об этногенезе и этнической истории Моваруннахра в последний период монгольского владычества, накануне прихода к власти Амира Темура.

**Ключевые слова:** Племя, тюрко-монголы, власть, улус, вождь, съезд, территория, завоевание, переселение, миграция, этнос, самостоятельное правление.

## REGARDING THE SETTLEMENT OF SOME TURKO-MONGOL TRIBES IN MOVAROUNNAHR AT THE END OF THE MONGOL RULE

**Abstract.** In this article, after the conquest of Movarounnahr by the Mongols, it became part of the Chigatoy ulus and the arrival of the Turko-Mongolian tribes that were given to the service of Chigatoykhan, as well as the Mongols. As a result of the struggle for the throne in the kingdom, the second wave of Turko-Mongol tribes from the middle of the 13th century entered Movarounnahr. settlement of the tribes that came to different countries, the position they held in Chigatoy ulus, settlement of clans and tribes, the involvement of Turko-Mongol tribes in mutual struggles during the period when the struggle for the crown began in Chigatoy ulus, located in Movarounnahr. The strong Turko-Mongol tribes tried to take the leadership themselves and eventually the Chigatai clan fell into disarray. issues are presented. Also, in the article, clans such as Arlot, Sulduz, Duglot, Barlos, Jaloyir, Arghun, Apardiy, Naiman, Khalaj, Chigil, Chagrog, Buruldoi, Kavchin, Karaunas (Nekudori), Yasovur, Hazora, Darlikin -tribes and ethnic groups, their location in the historical period under consideration, changes in the areas located in political, socio-economic processes, the country participation in socio-economic and political life was studied on the basis of information from historical sources and literature. The collected materials were comparatively analyzed and scientific conclusions were drawn. The comments presented in the article serve to enrich understanding and imagination about the ethnogenesis and ethnic history of Movarounnahr during the last period of Mongol rule, on the eve of Amir Temur's rise to power.

**Key words:** Tribe, Turko-Mongol, power, ulus, leader, congress, territory, conquest, migration, migration, ethnos, independent governorship.

**Kirish.** Chig'atoy ulusi XIII asr o'rtalarida deyarli tugatilish arafasida bo'lib, uning bir qismini yana bir Chingizxon avlodlaridan biri bo'lmish Xaydu istilo qilgan. Shuningdek, Chig'atoyxonga xizmat qilgan bir qism turk-mo'g'ul qabilalarini o'zi egallab olgan hududlardan mustaqillikni saqlab qolgan Movarounnahr hududlariga majburiy ko'chirib yuborgan. XIV asrning o'rtalarida yana Chig'atoy ulusida o'zaro kurash avjga chiqib, mamlakat ikki qismga bo'linib ketgan. Ushbu maqolada, Movarounnahr hududidagi turk-mshg'ul qabilalarining ko'rib chiqilayotgan tarixiy davrda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda ishtiroki, ularning joylashuvi va siyosiy kurashlarda ishtiroki tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Tanlangan mavzuni mazmunan ochib berishda dastlab manbaviy ahamiyatga ega bo'lgan asarlarni keltirib o'tishni lozim deb hisoblaymiz. Movarounnahrda kirib kelib o'rnatilgan turk-mo'g'ul qabilalari, ularning kelib chiqishi, qachon va qaysi tarixiy-siyosiy jarayonlar natijasida Movarounnahrda kirib kelishi haqida dastlabki, ishonchli ma'lumotlar keltirilgan. Bu asarlar sirasiga Rashid ad-Dinning "Sbornik letopisey / per. s persidskogo L.A. Xetagurova, redaksiya i primechaniya prof. A.A. Semenova. - T. 1, kn. 1.", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma // So'z boshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar muallifi va nashrga tayyorlovchilar: A.Ahmad, H.Bobobekov: Mas'ul muharrir B. Eshpo'latov. Nashrlar va matbaachilar guruhi: I.Shog'ulomov va boshqalar", Muyiniddin Natanzining "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy (Muiniy tarixlari tanlanmasi) / Muiniddin Natanziy; fors tilidan tarj., so'z boshi va izohlar muallifi G'.Karimiy; mas'ul muharrir A.O'rinboyev" kabilardan keng foydalandik.

Shuningdek, taniqli o'zbek olimi A.Asqarovning "O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi" asarida tahlil qilinayotgan xronologik davrda turk-mo'g'ul qabilalarining O'zbek xalqi etnogenezida ishtiroki masalalari yoritilgan bo'lsa, O.K. Karayevning "Chagatayskiy ulus. Gosudarstvo Xaydu. Mogulistan. Obrazovaniye kirgiskogo naroda" asarida Xaydu tomonidan Chig'atoy ulusining sharqiy qismlari istilosi va bir qism turk-mo'g'ul qabilalarining Movarounnahrda majburan ko'chirilishi keltirib o'tilgan. Qalmoq tarixchi A.Ochir "Mongolskiye etnonimi: voprosi proisxojdeniya i etnicheskogo sostava mongolskix narodov" asarida, turk-mo'g'ul qabilalarining kelib chiqish tarixi, ularning turli turli davrlarda yashagan hududlari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbek olimlaridan so'nggi yillarda ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan B.Usmonovning "Farg'ona vodiysi Amir Temur va temuriylar davrida" nomli monografiyasida Farg'ona vodiysida joylashgan turk-mo'g'ul qabilalari tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar berilsa, J.Q. Ko'charovning "Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro vohasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot (XIV asr 70-yillari – XV asr). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) olish uchun yozilgan dissertatsiya"da Buxoro vohasi va unga tutash hududlarda yashagan urug'-qabilalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Natijalar va munozaralar.** Mo'g'ullar istilosi, Chig'atoy ulusi mavjud bo'lib turgan davrida Movarounnahr hududiga bir qator turk-mo'g'ul qabilalari kirib kelib o'rtnashganligini ko'rishimiz mumkin. Turk-mo'g'ul qabilalari Chig'atoy ulusi xonlaridan o'zlari ko'chib yurishlari va chorva ehtiyoji uchun yer-mulk olganlar. Shu bilan bir qatorda buning evaziga harbiy majburiyat o'tashlari lozim bo'lgan. Shuningdek, chingiziylardan bo'lgan Xaydu Chig'atoy ulusining bir qismini istilo qilgandan so'ng 1269-yilgi qurultoyda Chig'atoy ulusining sharqiy qismi (hozirgi Sharqiy Turkiston, Talas vodiysi)da yashovchi turk-mo'g'ul qabilalari bo'lgan Movarounnahrda ko'chib o'tishlari lozim bo'lgan. ko'chib kelgan qabilalarning yiriklari sifatida tarixiy adabiyotlarda Arlot, Jaloyir, Qavchin va Barloslar alohida tilga olib o'tilgan. Bu qabilalarning har birining o'z vazifasi bo'lib, Qavchin qabilasi xon saroyida xizmat qilishi lozim bo'lsa, arlotlar uchun yashash hududi sifatida Amudaryo bo'ylari ajratilgan, jaloyirlarga ulus sifatida Xo'jand atroflari berilgan bo'lib, barloslar Kesh hududida o'rtnashganlar[1. 56]. Bu Movarounnahr hududiga mo'g'ullar hukumronligi davriga turk-mo'g'ul qabilalari kirib kelishining so'nggi yirik to'liqini bo'lgan.

Movarounnahrda kirib kelgunga qadar ushbu qabilalar quyidagi hududlarda yashaganlar. Barloslar XII asr oxiriga qadar mo'g'ullarning Nirun deb nomlangan qabilasi tarkibidagi urug'lardan biri sanalgan shuningdek, asl mo'g'ul qabilalari nirunlar deb atalgan bo'lib, mo'g'ullarning boshqa qabilalari Darlikin deb nomlangan[7. 121]. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan XII asr oxirigacha barloslar asl Mo'g'uliston hududlarida yashaganlar. Barloslar Chingizxon tomonidan Chig'atoyxon xizmatiga berilgandan so'ng Chig'atoyxon barloslar yashaydigan hududlar sifatida Ili daryosi bo'ylarini belgilab bergan. XIII asr o'rtalarigacha aniqrog'i 1269-yilgi qurultoygacha barloslar Ili daryosi sohillarida yashaganlar. Qurultoyda Chig'atoy ulusi bir qismi Xaydu qo'l ostiga o'tgandan keyin barloslar XIII asr 60-yillari oxirlarida mingta oila Kesh viloyatiga ko'chib o'tishga majbur bo'lgan[10. 458]. Hozirgi kunga qadar barloslarning ushbu hududda yashab qolganliklarini ko'ramiz.

1269-yilgi uluslarni qayta taqsimlanishiga xizmat qilgan qurultoydan so'ng Movarounnahr hududiga kirib kelgan qabilalardan yana biri Qavchinlar bo'lib hisoblanadi. Qavchilar kelib o'rtnashgan hudud sifatida Farg'ona vodiysi va Qashqadaryoning G'uzor tumani hududlari keltirib o'tilgan[3. 22]. Qavchinlar 1269-yildan boshlab Chig'atoy xonlarining asosiy tayanchi bo'lganlar va xon saroyida xizmatda bo'lganlar. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganda ham Qavchinlar Amir Temur saltanatining ishonchi harbiylari bo'lib, qavchinlardan bo'lgan amir Musiqa qavchinga Amir Temur Xorazimni boshqarishni topshirgan. Shu tariqa qavchinlarning Xorazimga ham ko'chib o'tishi sodir bo'lgan[10. 458-459]. Shu vaqtdan boshlab Qavchinlarning katta qismi Xorazimda yashab qolganlar.

Arlot qabilasi XII asr asrning oxiriga qadar Tayjiut qabilasi tarkibida bo'lib, Onon daryosi va Xeytey tog'lari orasida yashagan. XIII asr o'rtalarida Chingizxonni markazlashtirish siyosatini

10 qo'llab-quvvatlaganlar[7. 15]. Shu tariqa alohida qabila vakillari sifatida Chingizxon va uning avlodlariga xizmat qilganlar. Chig'atoyxon xizmatiga berilgan vaqtda arlotlar XIII asrda Yettisuv hududlarida yashaganlar. Shu asrning 60-yillarida hozirgi Shimoliy Afg'oniston va Surxondaryo viloyatining janubida o'rtnashganlar. Shuningdek, Xuroson tarixiy geografik o'lkasining Afg'onistonga tegishli qismlarida yashab qolganlar[10. 459]. Keyinchalik arlotlarning boshqa hududlarga tarqalishi ham sodir bo'lgan. Jumladan, Buxoro viloyatida Olot tumani mavjud bo'lib, xalq etimologiyasida Olot tumani atamasi Arlot qabilasi nomining talafuzda o'zgargan shakli deb qaraladi.

1269-yildan so'ng Movarounnarga ko'chib kelgan to'rt yirik qabiladan yana biri Jaloyirlar bo'lib, ularning shakllanishida turk, mo'g'ul, tungus etnonimlari ishtirok etgan va qabila shakllanishi XII asr oxiri – XIII asr boshlariga to'g'ri kelishi xususida ma'lumotlar mavjud. Jaloyir qabilasi shakllangan vaqtda ularda dastlab yetti urug' bo'lgan bo'lib, Chingizxon davrida ularning ikki urug'i g'arbiy qanotga, to'rt urug'i sharqiy qanotga ajratilgan, bir qismi esa O'qtoy ixtiyoriga berilgan. Chingizxon mulklarini o'g'illari o'rtasida taqsimlanganda jaloyirlar Jo'ji, Chig'atoy uluslari va keyinroq elxoniyar saltanati hududlariga ham tarqalganlar[7. 190-191]. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelish arafasida ham jaloyirlar Xo'jand hududlarida yashab qolganlar.

Mo'g'ullar hukumronligi so'nggi davrida, Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi arafasida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda turk-mo'g'ul qabilalarining ta'siri katta bo'lib, ularning ayrimlari qudrati va ta'siri katta bo'lib, Movarounnahrda yetakchilik qilish uchun kurashlar olib borgan bo'lsalar, ayrimlari o'zlari mustaqil siyosat yuritishga harakat qilganlar. Sharafiddin Ali Yazdiyda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Movarounnahrda yashagan qudratli qabilalar quyidagi hududlarda joylashganlar. Kesh shahrida Barlos qabilalari yashagan bo'lsa, Xo'jandda Jaloyirlar, Sulduzlar Balxda Naymanlarning apardiy urug'i Shibirg'on va Huttalonda, Yasovuriylar Totkent va Saripul (hozirgi Samarqand viloyati hududi) yashaganlar [2. 19]. Bu kabi joylashuv Chig'atoy ulusida amir Qazag'an o'ldirilgandan keyingi siyosiy boshboshdoqlik boshlangan davrdagi qabilalarning joylashuvi bo'lib, "Zafarnoma"dan boshqa tarixiy manba va adabiyotlarda ham keltirib o'tilgan. Masalan Muiniddin Natanziyda, Amir qazag'an vafotidan keyin amir Husan darbadarlikda kun kechirgan. Ilgari Qazag'anga qarashli yerlarni boshqa qabila vakillari egallab olganlar. Masalan, amir O'ljoybug'a sulduzlarga bosh bo'lib amir Qazag'anga qarashli yerlarga sardorlik da'vo qilgan, naymanlar amiri Hamidhoja Shibirg'onni o'z tasarrufiga kiritgan. Amir Kayxusrav va amir O'ljoytu Aparidi ittifoq bo'lib, Xatlon viloyatini qo'lga kiritgan. Shuningdek, amir Xizr yasovuriy o'zini mustaqil his qilganiga oid fikrlarni keltirib o'tgan[6. 52]. Demak, amir Qazag'anning o'limi Chig'atoy ulusidagi turk-mo'g'ul qabilalarining joylashuviga kamroq bo'lsada ta'sir ko'rsatgan deb xulosa qilish mumkin.

Hozirgi vaqtda Afg'onistondagi Hazara qabilasi tarkibidagi Karaun (qoraunas) urug'i mavjud bo'lib, ular asosan Bog'dis viloyati atroflarida ko'pchilikni tashkil qilib yashaydilar[5. 302-303]. Qoraunas mo'g'ullar hukumronligi so'nggi davrida katta harbiy kuchga ega qabila bo'lib, amir Qazag'an va uning oilasiga xizmat qilganlar. Ammo, amir Qazag'an o'ldirilgandan so'ng Qoraunas qabilasida bo'linish sodir bo'lgan deb xulosa qilish mumkin. Chunki, qoraunaslarning bir qismi amir Husaynga xizmat qilishni davom ettirgan bo'lsalar, bir qismi Munk, Solisaroy (Huttalon) shaharlarida mustaqil siyosat yuritishga harakat qilganlar[6. 44]. Keyingi tarixiy jarayonlarda ushbu qabilaning ta'siri kamayib borganligini ko'rishimiz mumkin. Movarounnahrning markaziy qismi hisoblangan Zarafshon daryosi havzasi va unga tutash yerlarda, XIV-XV asrlarda Qarluqlar va ularga qarindosh Xalaj, Chigil qabilalari yashaganlar. Shuningdek, bu qabilalarning Toxariston hududlarida ham yashaganliklari ma'lum. Amir Temur hukumronligi yillarida Zarafshon daryosi havzasiga Dashti qipchoqdan Qang'li qabilasining bir qismining kirib kelishi ham sodir bo'lganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan[10. 467-468]. Tarixchi olim J.Ko'charov keltirgan ma'lumotlarda, Zarafshon vohasining janubiy-g'arbiy qismida, ya'ni Buxoro vohasida yasovuriylar ham yashagan bo'lishi mumkinligi tilga olib o'tilgan[4. 19]. Shuningdek, Yasovuriylar Samarqand atrofidagi Saripul va Totkenda (Yazdiy ma'lumotlarida) yashaganliklari keltirib o'tilgan[10. 470]. Zarafshon vohasida yasovuriylar salmog'i anchagina bo'lgan deyishga asoslar yetarli deb hisoblash mumkin.

Chig'atoy ulusida, xususan ulus ikkiga bo'lingandan keyin Chig'atoy ulusining sharqiy qismida katta qudratga ega bo'lgan Dug'lot qabilasining ham bir qismi Movarounnahrda kelib o'rtnashgan. Dug'lotlar XIV-XV asrlarda Ili havzasi va Yettisuvda yashaganlar. Shu bilan bir qatorda ularning bir qismini Farg'ona vodiysi, Samarqand, Hisor va Qorategin hududlariga tarqalishi va tarqoq holda yashaganliklari ma'lum [10. 468]. Chig'atoy ulusining g'arbiy qismida dug'lotlar katta ta'sir kuchga ega bo'lmaganlar. Amir Temur Movarounnahrni birlashtirish uchun kurash olib borish jarayonida Kumaz va O'rnak Temur boshchiligidagi uch-to'rt mingdan iborat mo'g'ullar Toshkent vohasida hukmronlik qilishgan. Amir Temur ularni bo'ynsundirsada, quvib yubormagan [9. 78]. Ammo, mo'g'ullarning qaysi qabilasi yoki urug'lari Toshkent vohasida yashab qolganiga oid ma'lumotlarga hozircha ega emasmiz.

Sulduzlar mo'g'ullarning darlinkin tamog'idan bo'lib, afsonalarga ko'ra, ular Alanquva davridan oldinroq ham mavjud bo'lganlar [8. 76]. XII asr oxirlarida sulduzlar tayjiutlar tarkibida bo'lib, Chingizxonning markazlashtirish siyosatiga qarshi kurashganlar [7. 156]. Chig'atoy ulusi davrida sulduzlar Chog'aniyon, hisor vodiysi va Shimoliy Afg'onistonning Balx viloyati atroflarida yashaganlar. Shimoliy Afg'oniston hududlarida XIV-XV asrlarda arg'inlar ham yashagan. Arg'inlar nisbatan ko'proq yashagan hudud sifatida Movarounnahrning Farg'ona vodiysini keltirib o'tish mumkin [10. 468-469]. Chig'atoy ulusida mo'g'ullar hukmronligi so'nggi davrida Amir Temur va amir Husaynlarning Ilyosxo'jaga qarshi kurashlari davrida (taxminan 1362-1364-yillar atrofi) amirlar Xulm atrofida Buruldoy degan el (qabila)ga hujum qilib uni bo'ynsundirgach, Badaxshonga qarshi yurish qilganliklari tarixiy adabiyotlarda qayd etilgan [6. 61]. Demak, siyosiy hayotda bu qabila katta rolo'ynamagan. Shuningdek, bu kabi kichik urug' yoki qabila Boburning "Boburnoma" asarida ham tilga olib o'tilgan bo'lib, Bobur Andijon viloyatining tog'li hududlarida Chag'roq (Chig'rak) deb ataladigan etnik guruh yashaganligini yozib qoldirgan [10. 474]. Bir so'z bilan aytganda Chig'atoy ulusida mo'g'ullar hukmronligining so'nggi davrida bir qator urug'-qabilalar hokimiyat uchun kurashlar olib borganlar va siyosiy jarayonlar ta'sirida o'zlari yashab turgan hududlarni o'zgartirishga majbur bo'lganlar deb xulosa qilish mumkin.

**Xulosa** qilib aytganda, Amir Temur Movarounnahrda hokimiyatni qo'lga kiritish arafasida sodir bo'lgan siyosiy jaranlar shunchaki jangu-jadal bo'lib qolmay, bu kurashlar urug'-qabila va xalqlarning hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. G'olib urug'-qabilalar o'zlarining xo'jalikva iqtisodiy asoslarini yaxshilab olish imkoniga ega bo'lsalar, mag'lub bo'lgan urug'-qabila vakillari boshqa hududlarga ko'chishga majbur bo'lganlar va shu tariqa Movarounnahrda urug'-qabilalarning joylashuvida o'zgarishlar kelib chiqqan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Амир Темур жахон тарихида / Масъул муҳаррир: Х-Кароматов. Муаллифлар жамоаси: С.Саиддосимов (рахбар), А.Ахмедов, Б.Ахмедов ва бошқ. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашр. - Т.: Шарк, 2001. - 293 б.
2. Ўзидий, Шарафуддин Али. Зафарнома // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А.Ахмад, Ҳ.Бобобеков: Масъул муҳаррир Б. Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шоғуломов ва бошқалар // - Т.: Шарк, 1997. - 384 б. + 16 илова.
3. Караев О.К. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. Образование кыргыского народа. - Бишкек: Кыргызстан, 1995. - 160 с.
4. Кўчаров Ж.Қ. Амир Темур ва темурийлар даврида Бухоро воҳасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёт (XIV аср 70-йиллари – XV аср). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) олиш учун ёзилган диссертация. - Қарши 2021. - 158 б.
5. Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана. В двух томах. Том I. С древнейших времен до начала XVI века. - М.: Наука, 1964. - 462 с.
6. Натанзий Муиниддин. Мунтахаб ут-таворихи Муиний (Муиний тарихлари танланмаси) / Муиниддин Натанзий; форс тилидан тарж., сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ғ.Каримий; масъул муҳаррир А.Ўринбоев. - Т.: O'zbekiston, 2011. - 264 б.